

# Yashil

IQTISODIYOT  
TARAQQIYOT  
va

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2  
0  
2  
4



No 6

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'sratish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja  
ISSN: 2992-8982



# **Yashil**

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Bosh muharrir:**

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

**Bosh muharrir o'rinnbosari:**

Karimov Norboy G'aniyevich

**Muharrir:**

Qurbanov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 290 sahifa.*

*E'lion qilishga 2024-yil 25-iyunda ruxsat etildi.*

### **Tahrir hay'ati:**

**Salimov Oqil Umrzoqovich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi

**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi

**Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya**, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

**Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi**, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari

**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri

**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich**, i.f.d., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinnbosari

**Axmedov Durbek Kudratillayevich**, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati

**Axmedov Sayfullo Normatovich**, i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori

**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich**, i.f.d., prof., Navoiy davlat pedagogika instituti rektori

**Siddiqova Sadoqat G'afforovna**, p.f.f.d., (PhD), Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori

**Xudoqulov Sadirdin Karimovich**, i.f.d., prof., TDIU Hududiy ta'lif muassasalari va markazlar bo'yicha prorektor v.b.

**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, i.f.d., TDIUpfessori

**Samadov Asqarjon Nishonovich**, i.f.n., TDIU professori

**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich**, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

**Axmedov Ikrom Akramovich**, i.f.d., TSUE professori

**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li**, i.f.f.d., TDIU dotsenti

**Utayev Uktam Choriyevich**, O'zR Bosh prokururaturasi boshqarma boshlig'i o'rinnbosari

**Ochilov Farxod**, O'zR Bosh prokururaturasi IJQKD boshlig'i

**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich**, i.f.d., TDIU professori

**Musayeva Shoira Azimovna**, SamDu IS instituti professori

**Cham Tat Huei, ( PhD ) USCI universiteti professori**, Malayziya

**Axmedov Javohir Jamolovich**, i.f.f.d.,(PhD) "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinnbosari

**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, t.f.f.d.,(PhD) TAQU katta o'qituvchisi

**Djudi Smetana**, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH

**Krissi Lyuis**, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH

**Ali Konak (Али Күнак)**, i.f.d., prof., Karabuk universiteti dosenti, Turkiya

**Glazova Marina Viktorovna**, i.f.n., "LUKOIL-Energoservis" Kompaniyasi iqtisodchisi, Moskva.

**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi**, i.f.f.d., (PhD) TDIU dotsenti

**Sevil Piriyeva Karaman**, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti

**Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li**, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

**Editorial board:**

**Salimov Oqil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

**Abdurakhmanov Kalandar Khodjaevich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

**Rae Kwon Chung**, honorary professor of TSUE, Nobel laureate, South Korea,

**Osman Mesten**, member of the Turkish Parliament, head of the Turkey-Uzbekistan Friendship Society

**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich**, DSc, Prof., Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

**Buzrukhanov Sarvar Khan Munavvar Khanovich**, DSc, Deputy Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, DSc, Prof., Deputy of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan

**Akhmedov Sayfullo Normatovich** CSc, Prof., Rector of Academy of Labor and Social Relations

**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna**, DSc, Prof., TSUE Vice-Rector for Scientific Affairs and Innovation

**Kalonov Mukhiddin Bakhritdinovich**, DSc, Prof., Rector of the Navoi State Pedagogical Institute

**Siddikova Sadokat Ghaforovna**, PhD, Rector of the Bukhara Institute of Engineering and Technology

**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, DSc, Prof., acting Vice-rector for regional educational institutions and centers of TSUE

**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, DSc, Prof., of TSUE

**Samadov Askarjon Nishonovich**, CSc, Prof., of TSUE

**Slizovsky Dimitriy Yegorovich**, DSc, Prof., of the People's Friendship University of Russia

**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, DSc, Prof., Rector of International "Nordic" University

**Akhmedov Ikrom Akramovich**, DSc, Prof., of TSUE

**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja ugli**, DSc, Prof., of TSUE

**Utayev Uktam Choriyevich**, Deputy Head of the DGPO of the Republic of Uzbekistan

**Ochilov Farkhad**, Head of the DCECGPO of the Republic of Uzbekistan

**Eshtayev Alisher Abduganievich**, DSc, Prof., of TSUE

**Shoira Azimovna Musaeva**, professor of SamDu IS Institute

**Cham Tat Huei**, PhD, professor at USCI University, Malaysia

**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, PhD, deputy of executive director of the "El-yurt umidi" fund

**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, PhD, Senior Lecturer at Tashkent University of Architecture and Construction

**Judy Smetana** CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

**Chrissy Lewis** CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

**Ali Konak** DSc, Prof., Associate Professor of Karabuk University, Turkey

**Glazova Marina Viktorovna**, CSc, economist at LUKOIL-Energoservis Company, Moscow.

**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, associate professor of TSUE

**Sevil Piriyeva Karaman**, PhD, doctoral student at Ankara University, Turkey

**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli**, independent researcher of TSUE

## **Ekspertlar kengashi:**

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, t.f.d., profesor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, f.f.d., TDIU professori  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, i.f.d., TDIU professori  
**Xalikov Suyun Ravshanovich**, i. f. n., TDAU dotsenti  
**Rustamov Ilhomiddin**, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, i.f.d, TDIU dotsenti  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, i.f.f.d., TDIU dotsenti  
**G'afurov Doniyor Orifovich**, p.f.f.d., (PhD)  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, i.f.f.d, TDIU dotsenti  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, i.f.d., TMI dotsenti  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, TDIU katta o'qituvchisi  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

## **Jurnalning ilmiyligi:**

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali  
O‘zbekiston Respublikasi  
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi 336/3-  
sonli qarori bilan ro‘yxatdan  
o’tkazilgan.

**Muassis:** “Ma’rifat-print-media” MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O’zR  
Tabiat resurslari vazirligi, O’zR Bosh prokururaturasi huzuridagi IJQK  
departamenti.



# MUNDARIJA

Oliy ta'lif islohotlarida – muhandislik maktablarini institutsional rivojlantirish asoslari .....	16
Qo'ng'irotboy Avezimbetovich Sharipov, Abduqunduzova Nazokat Usmonqulovna	
Xufiyona iqtisodiyot mamlakatimiz rivojiga to'siq bo'lmoqda .....	20
Muxiddin Kalonov	
"Yashil" iqtisodiyotni moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirish .....	24
Muhammadiyeva Maftuna	
Oliy ta'lif tizimidagi islohotlarda innovatsion yechimlarning zarurati .....	27
Abduqunduzova Nazokat Usmonqulovna	
Hududiy turizm rivojlanishining iqtisodiy samaradorligini oshirishda ish beruvchilar va yonlanuvchilar o'rtaidagi iqtisodiy munosabatlarni aniq sotsiologik baholash.....	31
Dustmurodov Orifjon Ismatillovich	
Перспективы развития средств размещений в экологическом туризме на охраняемых природных территориях Узбекистана .....	40
Ахмедходжаев Равшан Темурович	
Bank kartalari orqali ko'rsatilayotgan xizmatlari bozorining rivojlanish borasidagi asosiy tendensiyalari va muammolari .....	49
Toiyirov Yunus Alamovich	
Kichik biznes subyektlarida innovatsionraqabatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish orqali import o'rnini bosish strategiyasini shakllantirish istiqbollari.....	55
Rustamov Alisher Raxmataliyevich	
Nodavlat umumiy o'rta ta'lif maktabning faoliyati samaradorligini aniqlashda innovatsion usullardan foydalanish.....	62
Ustadjalilova Xurshida Aliyevna	
Tijorat banklarida bank risklarini boshqarishning strategik ahamiyati.....	67
Altibayev Xudayberdi Kuvandikovich	
Klaster iqtisodiy subyekt sifatida: mohiyati va tasnifi.....	71
Usmonov Sharofiddin Pazltdinovich	
Tijorat banklari tomonidan yoshlar tadbirkorlik faoliyatini kreditlashning nazariy-uslubiy jihatlari.....	76
Asrorov Azizbek Isomiddin o'g'li	
Oliy ta'lif muassasalari xalqaro tasnifi: nazariya va tendensiya.....	81
Yuldashev Iskandar Bahromovich	
Iqtisodiyot transformatsiyasi sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy resurslarini boshqarishda metodologik yondashuvlar va ilmiy qarashlar .....	86
Jivanova Nargiza Esanboevna	
Davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini samarali tashkil etish mezonlari va omillari.....	93
Z. Abdikarimova, S. Madaminov	
Savdo korxonalari boshqaruv samaradorligini oshirish imkoniyatlari.....	97
Q. J. Mirzayev, Sh. M. Islomov	
Sociological Assessment of Migration Processes .....	102
Gulmurodov Kamoliddin Abdukodir ugli	
Current issues of business management in the context of digitalization of the economy .....	112
Safarov Bakhtiyor Djurakulovich, Kadirova Zulhumor Namazovna, Dadabaev Kuchkor Abdullaevich	
Методические основы маркетинговых стратегий акционерных обществ.....	118
Эркинов Шахзод Баходир ўғли	



Insurance Mechanisms in Foreign Trade: Mitigating Risk and Facilitating Global Commerce .....	125
<b>Abirkulova Sohibjamol</b>	
Improving the Conceptual Framework for Modernizing the Tax System (Using the Example of Uzbekistan).....	130
<b>Bakhrom Nomazov</b>	
Ayollarning inson kapitalini rivojlantirishda kraufdanding platformasining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati .....	136
<b>Bozorova Saxobat Abdujapparovna</b>	
Evaluating the Environmental Sustainability of Uzbek Firms in the Green Economy.....	142
<b>Nurbek Xalimjonov Ulugbek ugli</b>	
O'zbekiston iqtisodiyotini innovatsion rivojlanishida inson kapitalining roli .....	148
<b>Eshmirzayev Faruddin Ilhomjonovich, Salimova Zaxro Sobirjon qizi</b>	
Agrokластерларда асосиј vositalarni modernizatsiyalash va ta'mirlash xarajatlarini tahlil qilish .....	155
<b>G'afforov Ilhomjon Ilyosjonovich, Mirzayev Behzod Abdug'ofur o'g'li, Narzullayev Nodirbek Aziz o'g'li</b>	
Improving the Practice of Increasing the Effectiveness of Managing Innovation Processes in Commercial Banks .....	160
<b>Juraev K. T.</b>	
Tadbirkorlik subyektlari eksportini rivojlantirishda raqamli platformalardan foydalanish .....	164
<b>Mamasoatov Dilshod Ravshanovich</b>	
Iqtisodiyotni raqamlashtirish va yashirin iqtisodiyotni kamaytirishda soliqlarning roli va ahamiyati.....	169
<b>Madraximov Baxtiyorjon Ortiqboy o'g'li, Rizayev Xabib Abduraufovich, Namazov Sa'dulla Namozovich</b>	
O'zbekistonda "yashil" iqtisodiyotga o'tishning joriy holati tahlili.....	175
<b>Rahmatullayeva Dilbar Olimovna</b>	
Buxoro viloyatida savdo xizmatlari raqobatbardoshligini baholash uslubiyatini takomillashtirish..	181
<b>Raxmatov Akmal Anvar o'g'li</b>	
The Contribution of Transport in the Development of Tourism Industry (Case Study: Uzbekistan).....	187
<b>Rofeeva Rukhshona Shavkatovna</b>	
Tadbirkorlik tavakkalchiligidagi sug'urtalash tizimi.....	192
<b>Sabirova Asal Shuhratovna</b>	
Improving the Effective use of Funds From Taxes and Fees in Kashkadarya Region .....	196
<b>Shakhzod Zokhidov</b>	
Iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi sharoitida sanoat korxonalarida iqtisodiy salohiyatni boshqarish .....	202
<b>Kadirova Shaxnoza Ilhomovna</b>	
Yangi O'zbekiston oliv ta'lif muassasalarida kadrlar tayyorlash masalalari.....	207
<b>Usmonov Baxodir Suvonqulovich</b>	
Temir yo'l transportida innovatsion faoliyatni rivojlantirish yo'llari .....	211
<b>Nasimov Shavkat Vasiyevich</b>	
O'zbekistonda banklararo raqobat.....	219
<b>Zunnunova Xulkar Muxtorovna</b>	
O'zbekistonning xalqaro moliya tizimiga integratsiyasini ta'minlashni takomillashtirish .....	225
<b>Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna, Kuchkarov Sanjar Baxtiyarovich</b>	
Respublikamizda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish istiqbollar.....	229
<b>Abduxamid Abdumalikovich Bektemirov</b>	
Iqtisodiy xavfsizlik tushunchasining mohiyati.....	233
<b>Aripov Oybek Abdullayevich, Madiyorov Shavkatbek Muxtarovich</b>	



Aksiyadorlik jamiyatlarida konsolidatsiyalashgan moliyaviy holat to'g'risida hisobot tuzishning bosqichlari.....	237
Eshonqulov Azamat Abdiraximovich	
Davlat moliyaviy nazoratining turlari va shakllari.....	241
Karayev Payzillaxon Yusufxonovich	
Tog' turizmini rivojlantirish manfaatlari yo'lida investitsiya resurslarini to'plash mexanizmlarini ishlab chiqish samaralari.....	245
Xidirov Alimardon Dagarovich	
The Main Role of the Teacher While Managing the Classroom and Some Aspects of Teaching English .....	248
Nilufar Turdiyeva	
Davlat xususiy sherikchilik faoliyatining menejment funksiyalari tizimida muvofiqlashtirishning ahamiyati .....	252
Suleymanov Farrux Raximjon o'g'li	
Qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmlari va sohada amalga oshirilayotgan tarkibiy-miqdoriy o'zgarishlar dinamikasi .....	256
G. Sh. Qo'idosheva, A. J. Toshboyev	
Логистика в Азии: опыт и перспективы оптимизации .....	260
Каюмова Паризода	
Temir yo'l transportida yo'lovchi tashish imkoniyatlarini oshirishning zamonaviy yondoshuvlari... G. I. Abdulxamidova	266
Povышение эффективности использования местных налогов и сборов в Кашкадарье: международная перспектива .....	272
Shahzad Zokhidov	
Financial and Credit Support for Investment and Innovative Developing Activities of a Tourist Enterprise .....	275
Rozokov Mukhammadaziz Mansurovich	
Роль контроля качества по хранению и переработке зерна в обеспечении продовольственной безопасности Республики Узбекистан .....	282
Холбекова Диlobar Rasuljon kizi	

# MUNDARIJA SODERJANIYE CONTENTS



# BUXORO VILOYATIDA SAVDO XIZMATLARI RAQOBATBARDOSHLIGINI BAHOLASH USLUBIYATINI TAKOMILLASHTIRISH

UO'K:339.138

Raxmatov Akmal Anvar o'g'li

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, mustaqil tаддиқотчи



**Annotatsiya:** Maqlolada savdo xizmatlari raqbatbardoshligini baholash bo'yicha tаддиқот natijalari yoritib berilgan. Buxoro viloyatida sohada faoliyat yurituvchi iqtisodiy subyektlarda ko'rsatilayotgan savdo xizmatlarining raqbatbardoshligi tаддиқот gipotezasiga asoslanib savdo muhiti, tovar va xizmatlarning xarid afzalligi hamda do'konning ichki muhitiga taalluqli bo'lgan mezonlar orqali baholangan. muallif yondashuviga asoslanib savdo xizmatlari ko'rsatishda asoslanib Buxoro viloyatida qo'shimcha xaridorlarni keng jalb qilishga urg'u berish, savdoning merchendayzing texnologiyasini rivojlantirish taklif qilingan.

**Kalit so'zlar:** savdo xizmatlari, raqbatbardoshlik, savdo muhiti, xarid afzalligi, raqbat ko'pburchagi, Laykert shkalasi, Sterjess formulasi, statistik guruhlash.

**Abstract:** The article highlights the results of a study on the assessment of the competitiveness of trade services in the Bukhara region. Based on the hypothesis of the study, was assessed according the competitiveness of trade services provided by economic entities operating in the Bukhara region to criteria related to the trading environment, consumer preferences for goods and services, as well as the internal environment of the store. Based on the author's approach to the provision of trade services, it is proposed to develop a technology for merchandising trade and attracting additional customers.

**Key words:** trading services, competitiveness, trading environment, purchase value, competitiveness polygon, Likert scale, Sturgess formula, statistical grouping.

**Аннотация:** В статье освещаются результаты исследования по оценке конкурентоспособности торговых услуг Бухарской области, основанной на гипотезе исследования конкурентоспособность торговых услуг, оказываемых экономическими субъектами, осуществляющими деятельность в Бухарской области, оценивалась по критериям, касающимся торговой среды, покупательского предпочтения товаров и услуг, а также внутренней среды магазина. На основе авторском подходе к оказанию торговых услуг, предложено разработать технологию мерчендайзинга торговли и привлечение дополнительных покупателей.

**Ключевые слова:** торговые услуги, конкурентоспособность, торговая среда, ценность покупки, многоугольник конкурентоспособности, шкала Лайкерта, формула Стерджесса, статистическая группировка.

## KIRISH

Mamlakatimizda savdo xizmatlarining rivojlanishi bilan bir qatorda iste'molchi xulq-atvorining o'zgarishi, xaridorlar tomonidan tovarlarning sifati va assortimentiga hamda ko'rsatilayotgan savdo xizmatlariga bo'lgan talabining tobora ortib borish tendensiyasi kuzatilmogda. Bu borada savdo mexanizmlarini yanada takomillashtirish, tovarlar bozorida sog'lom raqbat muhitini rivojlantirish, xaridorlarga qo'shimcha savdo xizmatlarini taklif etish orgali ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish va takroriy xaridini rag'baltantirish, shuningdek, tadbirkorlik subyektlari faoliyatining samaradorligini oshirish va harajatlarini kamaytirish, ular tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning raqbatbardoshligini ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratilmoqda. Shu bilan birga raqbatbardoshlikning o'ziga xos jihatlari, ta'sir darajasi, harakteri, boshqa tarmoqlarga nisbatan turlicha ekanligi, bozor faoliyat samaradorlik ko'rsatkichlarga kompleks ta'sir ko'rsatishini nazarda tutilganda hamda savdo sohasida faoliyat yurituvchi subyektlarining raqbatbardoshlik omillarini tadqiq etish ular uchun nafaqat tashqi bozorda, balki ichki bozorda ham raqbatbardoshligini oshirishning lozim.



## MAVZU BO'YICHA ADABIYOTLAR TAHLILI

Xorijlik olimlardan Xorijlik olimlardan M.Meskon, M.Albert, F.Xeodurilarning fikriga ko'ra, "...raqobatbardoshlik iste'molchilarni jalb qilish va ularni saqlab qolish imkoniyatini ifoda etadi. Bunda eng asosiy masala harajatlarni raqobatchi korxona darajasida saqlab qolishdir. Shuningdek, raqobatbardoshlik tovar narxi va iste'molchining ushbu tovardan olishi mumkin bo'lgan nafliligi o'rtaсидаги о'заро уйғунлик hamdir" [1].

P.Druker raqobatbardoshlik masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlarida tadbirkorlik faoliyatiga keng urg'u berilgan bo'lib, "...tadbirkorlik faoliyatining asosiy maqsadi foyda olish hisoblanadi. tadbirkor qancha ko'p foyda olsa u iste'molchilarga shuncha yaxshi xizmat ko'rsatishni, sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishni yo'nga qo'yadi. Natijada u boshqa ishtirokchilariga nisbatan raqobatbardosh hisoblanadi" [2].

I.N.Gerchikova tomonidan berilgan tarifda tovar va korxona raqobatbardoshligini umumlashtirishga harakat qilingan. "...korxona va tovar raqobatbardoshligi o'zaro yaxlit va bir-birini to'ldiruvchi hisoblanadi. Korxonaning bozorda raqobatlasha olish qobiliyati uning tovari raqobatbardoshligiga va korxona tomonidan raqobat kurashiga ta'sir ko'rsatish maqsadidagi qo'llaydigan usullari majmuidan iboratdir" [3].

K.M.Ibodovning ilmiy-uslubiy ishlarida korxona yoki tadbirkorlik subyektlarining raqobatbardoshligini baholash uslubiyati kengaytirilgan marketing kompleksi asosida takomillashtirilgan bo'lib, xizmatlar raqobatbardoshligini oshirish "...xizmat ko'rsatish jarayonini mijozlarning individual xohish-istiklari negizida takomillashtirishga ko'p jihatdan bog'liq" [4] ekanligi ko'rsatib o'tilgan.

U.N.Normurodov tadqiqotlarda raqobatbardoshlik chakana savdo korxonasi darajasida ko'rib chiqilgan bo'lib, bu tushunchaga – "...raqobatchilarga nisbatan chakana savdo xizmatlari ko'rsatuvchi iqtisodiy subyektning aholi uchun qulay joylashishi, savdo maydonining qulay va zamonaviy sotish usullariga mos jihozlanganligi, tovarlar assortimentlarini mo'l-ko'lligi hamda xaridorlarga tovarlarni vaqt birligida malakali xodimlar tomonidan sifatli savdo servisi ko'rsatish orqali ko'proq sotishga va yuqori foydaga erishishidagi ustunligi" [5] sifatida ta'rif berilgan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda induksiya va deduksiya, guruhash, mantiqiy tahlil usullardan foydalanilgan. Tadqiqot natijalarini umumiylashtirishga yaxlit tarzda ifodalash maqsadida jadval va rasmlardan foydalanilgan. Tadqiqot gipotezasi savdo xizmatlari raqobatbardoshlik darajasini Leykert shkalasining "yuqori", "o'rtachadan yuqori", "o'rtachadan past" va "past" bo'lgan oraliqlarida baholash asosida ishonchilik darajasini oshirish mumkinligiga asoslanadi.

## TAHLILLAR VA NATIJALAR

Savdo sohasi subyektlarining raqobat imkoniyati, milliy yoki hududiy xususiyatlarni hisobga olgan holda yuqori darajadagi savdo xizmatlari ko'rsatish asosida iste'molni qondirishda muhim hisoblanadi. ma'lumumki, savdo xizmatlari sohasi raqobatbardoshligi eng avvalo iste'molchilarni yuqori sifatli mahsulotlar va savdo xizmatlariga bo'lgan talablarini qondirish qobiliyatidir. Savdo xizmatlari raqobatbardoshligini baholashda quyidagi ketma-ketlikka rivoja qilish lozim:

- mezonlarni tanlash va ularni baholash;
- mezonlarning ahamiyatlilik darajasini aniqlash;

umumlashtirilgan raqobatbardoshlik indeksini hisoblab chiqish.

Savdo xizmatlari sohasi raqobatbardoshligining muhim mezoni bu – real ehtiyojlarni qondirish darajasi bo'lib, bu raqobatchilarning iste'molchilar uchun taklif etayotgan turli xildagi jozibadorlik mezonlaridan iborat. Tadqiqotimiz davomida savdo xizmatlari sohasi raqobatbardoshligini savdo korxonalarining muhiti, ichki muhiti, tovarlar va xizmatlarning xarid afzalligi kesimida baholash amalga oshirildi.

Savdo muhiti bilan bog'liq omillar, avvalo savdoni amalga oshirish bilan bog'liq barcha jarayonlar, ushbu jarayonlar amalga oshishini rag'batlantiruvchi makon va zamon xususiyatlari hisoblanadi. Mazkur ko'rsatkich doirasida biz savdo do'konining "...joylashishi, mijozlarning xabardorlik darajasi, savdo xodimlari tomonidan yetkazilayotgan ma'lumotlarning ishonchilik darajasi, transport imkoniyatlarining mavjudligi, do'konning ish rejimi hamda do'konning xizmat ko'rsatish davomiyligini" [6] asosiy mezonlar sifatida tanlab oldik.


Tovar va xizmatlarning xarid afzalligi ko'rsatkichi bo'yicha xodimlarning savdo madaniyati darajasi, tovarlarning narx darajasi, tovar assortimentining yangilanish darajasi, do'konda ko'rsatilayotgan savdo xizmatlari sifati, savdo xizmatlaridan foydalanishni rad etishi, savdo xizmatlaridan foydalanish tajribasi, iste'molchilarning tashrif davomiyligi va tovarlarning sifat darajasi asosiy mezon sifatida tanlab olindi.

Savdo xizmatlari ko'rsatuvchi subyektlarning ichki muhiti ham o'ziga xos raqobat ustunligi hisoblanib, mazkur ko'rsatkich bo'yicha raqobatbardoshlik mezonlari sifatida do'konning ichki ekomuhiti, kassa zonasining



jihozlanish darajasi, savdo zalida tovarlarning joylashtirish darajasi, tovarlarning sifat darajasi, do'konning ichki intereri va bezatilish darajasi tanlab olindi.

Savdo korxonasining raqobatbardoshlik darajasini ta'minlash uni miqdoriy jihatdan baholash zarurligini anglatadi. Raqobatbardoshlikni miqdor jihatdan baholash sohaning samarali ishlashini, ko'zda tutilgan barcha chora-tadbirlarni to'g'ri amalga oshirilayotganligidan dalolat beradi. Savdo xizmatlari raqobatbardoshligini baholash jarayoni raqobatbardoshlikni boshqarish modelida aks etadi (1-rasm).



**1-rasm:** Savdo xizmatlari raqobatbardoshligini boshqarish modeli

Taklif etilayotgan integral ko'rsatkich savdo xizmatlari ko'rsatish bilan bog'liq sifat ko'rsatkichlarini o'z ichiga olib, faoliyatning turli bosqichlarida raqobatbardoshlikni iste'molchilar nuqtai nazaridan hamda qo'shimcha



xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq mezonlar asosida baholash imkonini beradi. Savdo xizmatlari raqobatbardoshligini baholash jarayonini quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

- Raqobatbardoshlik mezonlarini tanlash;
- Mezonlarning va ahamiyatlilik darajasini belgilash;
- Mezon ko'rsatkichlarni hisoblash va yakuniy integral qiymatni aniqlash.

Tadqiqotda savdo xizmatlari raqobatbardoshligini baholash Laykert shkalasi bo'yicha 10 ballik tizimda baholandi. Mezonlarning ahamiyatlilik darjasini ishlab chiqilgan tadqiqot so'rovnomasini asosida aniqlandi (1-jadval).

**1-jadval:** Savdo xizmatlari raqobatbardoshligi mezonlari va ularning ahamiyatlilik darjasini

Raqobatbardoshlik ko'rsatkichi	Mezonlar Pi	Mezonlarning ahamiyatlilik darjası (Wi)
Savdo muhiti	savdo do'konining joylashishi	0,30
	mijozlarning xabardorlik darjası	0,73
	savdo xodimlari tomonidan yetkazilayotgan ma'lumotlarning ishonchlilik darjası	0,33
	transport imkoniyatlarining mavjudligi	0,38
	do'konning ish rejimi	0,18
	do'konning xizmat ko'rsatish davomiyligi	0,17
Do'konning ichki muhiti	do'konning ichki ekomuhiti	0,97
	kassa zonasining jihozlanish darjası	0,86
	savdo zalida tovarlarning joylashtirish darjası	0,25
	tovarlarning sifat darjası	0,09
	do'konning ichki intereri va bezatilish darjası	0,21
Tovar va xizmatlarning xarid afzalligi	do'konda xodimlarning savdo madaniyati darjası	0,72
	tovarlarning narx darjası	0,62
	tovar assortimentining yangilanish darjası	0,89
	do'konda ko'rsatilayotgan savdo xizmatlari sifati	0,35
	savdo xizmatlaridan foydalanishni rad etishi	0,81
	savdo xizmatlaridan foydalanish tajribasi	0,57
	xaridorlarning tashrif davomiyligi	0,71
	tovarlarning sifat darjası	0,41

Har bir guruh bo'yicha raqobatbardoshlikning umumlashgan ko'rsatkichi mezonning ahamiyatlilik darjasini hisobga olgan holda hisoblab chiqiladi:

$$R_i = \sum_{i=1}^n P_i W_i$$

bu yerda  $R_i$  – savdo xizmatlari ko'rsatuvchi korxonaning i-ko'rsatkich bo'yicha raqobatbardoshligi;  $W_i$  – mezonning ahamiyatlilik darjası.

Savdo xizmatlari ko'rsatuvchi subyektlarning raqobatbardoshligining iyentegral ko'rsatkichi Rint quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$R_{int} = R_{sm} + R_{im} + R_{xa}$$

bu yerda  $R_i$  – raqobatbardoshlikning integral ko'rsatkichi,  $R_{sm}$  – savdo muhitini aks ettiruvchi mezonlarning integral ko'rsatkichi;  $R_{im}$  – savdo korxonasining ichki muhitini ifodalovchi mezonlarning integral ko'rsatkichi;  $R_{xa}$  – tovar va xizmatlarning xarid afzalligini aks ettiruvchi mezonlarning integral ko'rsatkichi.



Tadqiqot so'rovnomasasi asosida to'plangan ma'lumotlar asosida Buxoro viloyatidagi 17 ta savdo xizmatlari ko'rsatuvchi subyektlar tanlov asosida tahlil qilindi va raqobatbardoshlik darajasiga baho berildi. Hisoblash ishlari 2-jadvalda keltirilgan:

**2-jadval: Buxoro viloyatidagi savdo xizmatlari ko'rsatuvchi subyektlar raqobatbardoshlik darjasini**

No	Savdo xizmatlari ko'rsatuvchi subyektlar	Rsm	Rim	Rxa	Rint
1.	"Азия-Центр"	3,9	9,5	4,5	17,9
2.	"Бие-Нур"	11,5	14,4	10,6	36,5
3.	"Рузимурод"	19,4	19,9	36,4	75,6
4.	"Мухаммад" КК	17,6	23,0	31,4	71,9
5.	"Azamat"	6,5	13,2	50,1	69,8
6.	"РАЪНО-94" ХК	4,2	5,5	17,8	27,5
7.	"САЙФИДДИН БОХОРЗИЙ"	19,4	10,6	40,9	70,9
8.	"Seven"	13,7	10,1	29,0	52,8
9.	"Maxmud"	7,3	11,2	36,2	54,8
10.	"Жасур"	13,1	23,2	20,7	57,0
11.	"Куй дарвоза"	1,9	10,7	36,8	49,3
12.	"Arzon"	20,1	6,1	25,8	52,0
13.	"BELAYA BEROZKA"	10,5	22,5	35,4	68,5
14.	"Смаъ" савдо уйи	1,3	19,7	19,4	40,4
15.	"Хумо"	11,3	15,8	19,4	46,6
16.	"Самрад"	5,1	23,2	48,0	76,3
17.	"Гарни"	16,1	23,8	41,3	81,1
<b>Mezonlarning umumiyligi</b>		<b>183,0</b>	<b>262,4</b>	<b>503,7</b>	<b>949,0</b>

Endi ushbu savdo subyektlarini raqobatbardoshlik darjasiga ko'ra guruhlaymiz. Guruhlar sonini Sterjess formulasiga asoslanib hisoblaymiz:

$$n = 1 + 3,322 \times \log N$$

bu yerda n – guruhlar soni, N – guruhanayotgan savdo korxonalari soni.


$$n = 1 + 3,322 \times \log 17 \approx 5$$

Demak, 2-jadvalda tahlil qilingan korxonalarni shartli ravishda 5 ta guruhga, ya'ni raqobatbardoshlik darjasini "yuqori", "o'rtachadan yuqori", "o'rtacha", "o'rtachadan past" va "past" bo'lgan guruhlarga ajratamiz:

**3-jadval: Buxoro viloyatidagi savdo xizmatlari ko'rsatuvchi subyektlar raqobatbardoshlik darjasiga ko'ra guruhanishi**

Guruhlar	Raqobatbardoshlik darjasini	Guruh intervali, ball	Savdo korxonalari
1-guruh	"past"	17,9-30,5	1, 6
2-guruh	"o'rtachadan past"	30,6-43,1	2, 14
3-guruh	"o'rtacha"	43,2-55,7	8, 9, 11, 12, 15.
4-guruh	"o'rtachadan yuqori"	55,8-68,3	10, 13
5-guruh	"yuqori"	68,4-81,1	3, 4, 5, 7, 16, 17

Tahlillar Buxoro viloyatida savdo xizmatlarining raqobatbardoshlik darjasini tovar va xizmatlarning xarid afzalligi mezoniga ko'ra yuqori ekanligini, shu bilan birga savdo muhiti mezoniga ko'ra integral ko'rsatkichni savdo do'konining joylashishi, do'koning ish rejimi va do'konning xizmat ko'rsatish davomiyligi yo'nalishlarida rivojlantirishg zarurligini ko'rsatdi. Buni Buxoro viloyati bo'yicha savdo xizmatlari raqobatbardoshlik mezonlarining "raqobat ko'pburchagi" orqali qiyosiy tahlil qilishimiz mumkin (2-rasm).



**2-rasm:** Buxoro viloyatida savdo xizmatlari raqobatbardoshligining “raqobat ko’pburchagi”

2-rasmdan ko’rinib ko’rinib turibdiki, tahlil qilingan savdo korxonalarining raqobatbardoshlik pozitsiyasi mijozlarning xabardorlik darajasi, do’konda xodimlarning savdo madaniyati darajasi, tovar assortimentining yangilanish darajasi, savdo xizmatlaridan foydalanishni rad etishi, xaridorlarning tashrif davomiyligiga ko’ra belgilanmoqda. Buning natijasida, mijozlarning qoniqsanlik darajasiga erishilgan. O’tkazilgan tadqiqotlar natijalariga asoslanib, Buxoro viloyati savdo xizmatlari sohasi raqobat ustunligining “eng zaif” yo’nalishlari do’koning ish rejimi, do’konning xizmat ko’rsatish davomiyligi, tovarlarning sifat darajasi va do’konning ichki intereri va bezatilish darajasida kuzatilgan. Bunga asoslanib mazkur mezonlarni yanada rivojlantirish kelgusida nafaqat savdo xizmatlari sifatni yaxshilaydi, balki raqobatbardoshlikni ham mustahkamlashga xizmat qiladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tahlil natijalariga asoslanib, Buxoro viloyatidagi raqobatbardoshlik darajasi “yuqori” baholangan savdo xizmatlari ko’rsatuvchi subyektlarda ichki muhit mezonlariga bog’liq ekanligini ko’rsatdi.

Tahlil qilingan “Azamat” savdo korxonasida savdo xizmatlarining xarid afzalligi “yuqori”, “Seven” va “Maxmud” savdo korxonalarida qo’shimcha savdo xizmatlarining sifati yuqori darajada tashkil etilgan, “Arzon” supermarketida esa servis muhiti yuqori darajada tashkil etilgan.

Raqobatbardoshlik darajasi baholangan savdo xizmatlari ko’rsatuvchi subyektlarining 11,8% i (2 ta) “past”, 11,8%i (2 ta), “o’rtachadan past”, 29,4%i (5 ta) “o’rtacha”, 11,8% (2 ta) “o’rtachadan yuqori” va 35,3%i (6 ta) “yuqori” ko’rsatkichga ega.

Raqobatbardoshlik darajasi “past” bo’lgan savdo subyektlarida tovar va xizmatlarning xarid afzalligi sezilarli darajada past ekanligi, asosan kundalik ehtiyoj va oziq-ovqat mahsulotlari bilan savdo qilishi aniqlandi. Yuqoridagilarga asoslanib Buxoro viloyatida xaridorlarni keng jalb qilishda savdoning merchendayzing texnologiyasini rivojlantirishni taqozo etadi.

### Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati:

- Основы менеджмента. / Майкл Х.Мескон, Майкл Альберт, Франклин Хедоури; [пер. с англ.]. - 3-е изд. - Москва [и др.]: Вильямс, 2007. - 665 с.
- Друкер, П. Ф. Энциклопедия менеджмента. : Пер. с англ. – М.: Издательский дом “Вильяме”, 2004. – 432 с.
- Герчикова И.Н. Международное коммерческое дело. Учебник/Герчикова И.Н. - М.: ЮНИТИ, Банки и биржи, 1996. – 501 с.
- K.M.Ibodov. Restoran xizmatlari sohasi raqobatbardoshligini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss.avtoreferat: 08.00.05: 08.00.11/Ibodov Kamoliddin Mamatqulovich. -08.00.05:08.00.11. S.: Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, 2022. – 52 b.
- U.N.Normurodov. O’zbekistonda savdo korxonalari raqobatbardoshligi va iqtisodiy samaradorligini oshirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Samarqand 2022 y. –58 b.
- Ibodov, K. (2022). Restoran xizmatlari sohasi raqobatbardoshligini baholash uslubiyatini kengaytirilgan marketing kompleksi (7P’S) va mijozlarning qoniqsanlik indeksi (CSI) asosida takomillashtirish. IQTISODIYOT VA TA'LIM, 23(1), 173–180. <https://cedr.tsue.uz/index.php/journal/article/view/369>

# Yashi

IQTISODIYOT  
va  
TARAQQIYOT

İjtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 6**

© Materiallar ko'chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalı manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalı 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

